



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati.....	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari	148
Mamadiyrov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes.....	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	

SHARQ VA G'ARBDA TIBBIYOT FANLARINING YARATILISHI TARIXI

Bakayev Najmiddin

Osiyo Xalqaro Universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarga nafaqat tibbiyot qonuniyatlarini o'rgatish, balki ularni amalda qo'llash va rivojlantirish jarayonida psixologik-nazariy tushunchalarni shakllantirish muammolari va ilmiy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: qonunlardan foydalanish, kasalliklar, gematologiya, anatomiya, fiziologiya.

Abstract: This article examines not only the issues of teaching medical laws to students of higher medical education institutions, but also the scientific foundations for developing psychological and theoretical concepts essential for their practical application and advancement.

Key words: application of laws, diseases, hematology, anatomy, physiology.

Аннотация: В статье рассматриваются не только вопросы преподавания студентам медицинских вузов законов медицины, но и научные основы формирования психологических и теоретических представлений, необходимых для их практического применения и развития.

Ключевые слова: применение законов, болезни, гематология, анатомия, физиология.

KIRISH

Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari qadimiy tarixning turli davrlaridagi dunyoqarashlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, turli kasalliklar, ularni davolash va oldini olishga doir bilimlar asosi qadimdan insonlarning hayotiy tajriba va kuzatuvlariga tayanib shakllangan.

Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Bobil tibbiyoti hamda Gippokrat va uning izdoshlari muhim o'rin tutadi. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemor hayoti va faoliyatiga tashqi muhit ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini aniqlash va davolash jarayonida bemor organizmining individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan.

Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zolar va tizimlarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmi asosida tajriba yo'li bilan o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga oid asarlari XVI-asrgacha tibbiyot fanining nazariy asoslari sifatida xizmat qilgan.

MAVZUGA OID DABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda masofaviy ta'lim vositalari orqali ta'limiy axborot almashinuvi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu borada Baqaev N.B. masofaviy ta'lim imkoniyatlarini o'rganib, bilim almashinuvi tezligi va sifati talabalarning o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning yondashuvi ta'lim jarayonini interaktivlashtirishga asos bo'lmoqda.

Chet tillarni o'rgatish metodologiyasi borasidagi izlanishlar, xususan, Baqaev tomonidan taklif etilgan uslubiy asoslar, o'quvchilar til kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish modeliga asoslanadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishdagi fundamental yondashuvlar bo'yicha Baqaev va Raxmonovning hamkorlikdagi ishlari muhim ahamiyatga ega.

Polilingval guruhlarda tibbiy terminologiyani o'rgatish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, terminlar zamiridagi madaniy va lingvistik omillarni hisobga olish zarurligi ko'rsatilgan. Bu borada Baqaevning ishlari o'qitishdagi farqlanishlarni bartaraf etish mexanizmlarini yoritadi.



Tibbiy ta'limda lotin tilining o'rne haqida Baqaeov, Sharipov va Toshov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, lotin tili nafaqat tibbiyot tilining asosi sifatida, balki mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi vosita sifatida baholanadi. Bu g'oya ayniqsa yosh avlodni intellektual-ma'naviy rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarda qo'llanilmoqda.

Shuningdek, tibbiyot OTMlarida tushunchalarni shakllantirish metodikasi, terminlar va til birliklarining mazmunli o'zlashtirilishini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar asosida boyitilgan. Ushbu yondashuvlar o'qitish sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda zamonaviy ilmiy usullarga tayanildi. Asosiy ma'lumotlar sifatida tibbiyot fanlari rivoji, ayniqsa Sharq va G'arbdagi tarixiy taraqqiyot bosqichlariga oid ilmiy manbalar, elektron bazalar va ilg'or tadqiqotlar tanlab olindi. Tanlangan adabiyotlar ishonchli ilmiy nashrlar va indekslangan jurnallardan olingan bo'lib, ularning mazmuni mavzu doirasidagi nazariy asoslarni aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, kontent tahlili orqali tarixiy faktlar, olimlar fikrlari va metodologik yondashuvlar qiyosiy o'rganildi. Tahlil qilishda deduktiv va induktiv tahlil usullaridan foydalanildi: bir tomondan, umumiy nazariyalar asosida maxsus xulosalar chiqarildi, ikkinchi tomondan, konkret faktlar asosida umumlashmalar qilindi. Matn tahlilida matbuot manbalari, ilmiy maqolalar va ilmiy-tarixiy asarlardagi tibbiy g'oyalar tematik tasnif asosida ajratilib, ularning ta'sir omillari aniqlashtirildi. Shuningdek, sifatli (qualitative) tahlil usuli asosida muayyan g'oyalarning tibbiyot fanlari shakllanishiga ta'siri tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

G'arbda Uyg'onish davrida tibbiyot yangidan ravnaq topdi. XVI–asrda ko'pgina fanlar, ayniqsa, tibbiyot, fizika va kimyoning rivojlanishi kasalliklarni davolash, sababini bilishda bu fanlarning qonunlaridan foydalanish imkonini berdi. Xirurgiyada, ayniqsa, jarohatlarni davolashda yangi usullar joriy qilindi. Anatomiyaning asoschisi A. Vezaliy murdani yorib tekshirish bilan odam organizmining tuzilishi va organlar faoliyatini ilmiy jihatdan aniq asoslab berdi. Ingliz shifokori V. Garvey qon aylanish sistemasi haqida asar yaratib, tibbiyotda yangi bo'lim – fiziologiyaga poydevor qo'ydi. Fizikaning taraqqiyoti natijasida bu davrda mikroskop kashf etildi va undan tibbiyotda foydalanila boshlandi. Gollandiyalik olim Antoni Levenguk tomonidan mikroskopiyaning rivojlantirilishi mikrobiologiya sohasining shakllanishiga sabab bo'ldi.

XVII–XVIII asrlarda sanoatning rivojlanishi natijasida kasb kasalliklari haqidagi soha vujudga keldi. Bunday kasalliklar sababini dastlab rossiyalik olimlar o'rganib, tibbiyotga yangi – kasb kasalliklari hamda mehnat gigiyenasi bo'limlarini kiritdilar. Keyinchalik tabiiy fanlar va texnika sohasidagi tadqiqotlar doirasi yanada kengaydi. Tabiiy fanlarning yutuqlari tibbiyot taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, bemorni obyektiv tekshirish usullari (palpatiya, perkussiya va boshqalar) va laboratoriya, diagnostika asoslari ishlab chiqildi. Klinik tekshiruv natijalarini, murdani yorib tekshirishda olingan ma'lumotlar bilan taqqoslash usuli (A. I. Polunin, N. I. Pirogov va nemis olimi R. Virxov va boshqalar) kasallik belgilari organ va to'qima hamda hujayralarning tuzilishidagi o'zgarishlarga bog'liq ekanligini isbotlashga imkon berdi, bu tadqiqotlar natijasida keyinchalik tibbiyotning yana bir yangi bo'limi – patologik anatomiya va gistologiya sohalari vujudga keldi.

Energiyaning saqlanish va o'zgarish qonunlari kashf etilishi, organik moddalarning tuzilishi, o'zgarish va almashinuv yo'llarini o'rgana borish biologiya va tibbiyotning taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi, fiziologik hodisalarni tushuntirib bergan ilmiy yo'nalish o'sha qonunlarga asoslandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida mikrobiologiya sohasida bir qancha yangiliklar yaratildi. Epidemik kasalliklardan vabo, o'lat qo'zg'atuvchilari va kasallik epidemiologiyasi o'rganildi, chechak mikrobi aniqlandi va unga qarshi vaksina tayyorlandi (E. Jenner). Mahoratli shifokorlar yordamida butun dunyoda chechakka qarshi emlash rasm bo'ldi. Yuqumli kasalliklar sababi turli mikroblar ekanligini L. Paster asoslab berdi va bu kashfiyot asosida kishilarni kuydirgi, quturish kabi yuqumli kasalliklarga qarshi emlab, ularning oldini olish usullarini ishlab chiqish imkoniyati tug'ildi. Shu davrda Yevropada bezgak, toshmalı terlama (toshmalı tif), qaytalama terlama va boshqa yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroblar topildi. I. I. Mechnikov immunitet haqidagi ta'limotni yaratdi. Mikrobiologik kashfiyotlar asosida gigiyena fani shakllandi va yuksala bordi. O'sha davrda Rossiya va boshqa davlatlarda tashqi muhitning – havo, suv va tuproqning inson organizmiga, shuningdek, ijtimoiy omillar – mehnat, turmush tarzi va ovqatlanish sharoitlarining ishchilar sog'lig'iga ta'sirini o'rganish tufayli ijtimoiy gigiyena muammosi ilmiy asoslab berildi.

XIX asrning so'nggi choragida shakllangan biokimyofani sog'lom organizmda va patologik holatlarda moddalar almashinuvini o'rganish, uning o'zgarishini tekshirish natijasida kasalliklarni aniqlash bilan fiziologiya va patofiziologiyaning ancha ilgari ketishini ta'minladi va tibbiyotga yangi, yuqori informativ va bajarilishi osonroq laboratoriya usullarini kiritdi. Orqa miya nervlaridagi sezuvchi va harakatlantiruvchi tolalar o'rganildi,

bu esa organizmda nerv sistemasi faoliyatining ahamiyatini aniqlashga imkon berdi, qon va limfa tarkibi, bezlarning tuzilishi va funksiyalari o'rganildi. Rus olimlari S. P. Botkin, I. M. Sechenov, I. P. Pavlov tadqiqotlari tufayli markaziy nerv sistemasi va butun organizmning faoliyat qonunlari materialistik nuqtai nazardan ta'riflab berildi. Umuman, bu davrda eksperimental tibbiyot tobora rivojlanib bordi, shuningdek, fransuz olimi K. Bernar va rus patofiziologi V. V. Pashutinining bu borada olib borgan ilmiy tadqiqotlari umumiy patologiyani, keyinchalik A. A. Bogomolets va S. S. Xalatov asoslagan patologik fiziologiya fan sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Anatomiya va topografik anatomiyalarni chuqur o'rganilishi esa xirurgiyada operatsiyalarning muvaffaqiyatini ta'minladi.

XX asrda tibbiyotda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishildi. Nemis olimi V. K. Rentgen X-nurlarni kashf etdi va tibbiyotda rentgenologiyaga asos soldi. Tabiiy radioaktivlikning kashf etilishi, yadro fizikasi sohasidagi tadqiqotlar ionlovchi nurlarning tirik organizmga ta'sirini o'rganuvchi radiobiologiya faniga asos solindi. Bu sohadagi keyingi izlanishlar davolash va diagnostika maqsadida radioaktiv izotoplardan, nishonlangan atomlardan foydalanish imkonini berdi. Tibbiyot texnikasi ham tez rivojlandi. Tibbiyotga elektronika yutuqlarining tadbiiq etilishi natijasida organizmdagi turli organ va sistemalar faoliyatini aniq belgilab beradigan usullar, sun'iy yurak, sun'iy buyrak va hokazo ixtiro qilindi. Elektron mikroskop endilikda hujayradagi eng murakkab va nozik o'zgarishlarni, mayda mikroblarni aniqlashda zarur qurol bo'lib qoldi.

Tibbiyot kibernetikasi yordamida zamonaviy, ixcham va qulay protezlar yaratildi, shuningdek, operatsiya vaqtida bemorning nafas olishi va arterial bosimini me'yorida saqlab turadigan turli avtomatik sistemalar ishlab chiqildi. Texnika taraqqiyoti, o'z navbatida, tibbiyotga yangi sohalar (aviatsiya tibbiyoti, kosmik tibbiyot)ni kiritdi. Irsiyat va organizmning o'zgaruvchanlik qonuniyatini o'rganadigan genetika fani tibbiyotning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Irsiy kasalliklarni o'rganish tibbiyot genetikasi fanining paydo bo'lishiga olib keldi. Immunologiyaning rivojlanishi immunologik o'zgarishlar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni o'rganadigan immunopatologiyaga asos bo'ldi. XX asr boshlarida K. Landshteynerning izogemagglutinatsiya qonuni, Ya. Yanskiy tomonidan odam qoni tarkibi jihatidan to'rt guruhga bo'linishi kashf etilishi tibbiyot amaliyotida qon quyishdan keng foydalanishga imkon berdi. Bu davrda tibbiyotga Pirkening sil kasalligini aniqlaydigan allergik reaksiyasi (Pirke reaksiyasi) va "allergiya" termini kirib keldi.

XX asrning o'rtalarida mikroorganizmlarga qarshi kurashning kuchli vositalaridan bo'lgan antibiotiklar ixtiro qilindi va amalda qo'llanila boshlandi. Vitaminlar haqidagi ta'limot ham rivoj topdi. Ichki sekretsiya bezlarining tuzilishi va funksiyasini o'rganish tufayli endokrinologiya mustaqil fanga aylandi. U rivojlanib, gormonoterapiya va gormonal regulyatsiya masalalarini ham o'rganishga kirishildi. Kimyoterapiya, gormonoterapiya va markaziy nerv sistemasiga ta'sir etadigan preparatlarning qo'llanilishi, shuningdek, turli sintetik preparatlarni olish metodlarining kengayishi klinik tibbiyotni tubdan o'zgartirdi. Bu davrda yangi tibbiy jihozlar, jumladan, elektron apparatlar yordamida yurak faoliyatini klinik va eksperimental tekshirishlar amaliyotda keng qo'llanilishi natijasida kardiologiya sohasi ichki kasalliklar klinikasidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Miokard infarkti, qon ivishi, ateroskleroz va boshqa klinikasi ta'riflab berildi. Endilikda kardiologiya muammolarini terapevtlargina emas, balki xirurglar, fiziologlar, biokimyogarlarni ham o'rganmoqdalar.

Yuraktomir kasalliklaridan yurakning ishemik kasalligi (qarang: infarkt), ateroskleroz, gipertoniya kasalligi va boshqalarning oldini olish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Asabbuzarlik, tamaki chekish, jismoniy mehnat bilan kam shug'ullanish, me'yoridan ko'p ovqat yeyish, spirtli ichimliklarga ruju qilish, giyohvandlik kabi illatlar bunday kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Lekin bu kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolashda zamonaviy tibbiyot anchagina muvaffaqiyatlarga erishdi.

Xavfli o'smalarning paydo bo'lish sabablarini aniqlash va davolash tibbiyotning eng dolzarb masalasidir. Kimyoviy kanserogen moddalar va nurlanishning ta'sirini kamaytirish, o'smalar paydo qiladigan viruslarni topish va organizmning himoya mexanizmlarini o'rganish muhim masalalardandir. Bu borada O'zbekiston Onkologiya markazi ham faol ish olib bormoqda.

Zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalaridan yana biri asab va ruhiy o'zgarishlarni o'rganishdir, chunki bir qator mamlakatlarda bunga sog'liqni saqlashning birinchi masalasi deb qarashmoqda.

Tashqi muhitni muhofaza qilish va sog'lomlashtirish juda muhim ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. Suv, havo, tuproqning ifloslanishi va biosferada ekologik muvozanatning buzilishi kishilar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ichimlik suvi va tuproqning sanoat chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish o'ta dolzarb masaladir. Tashqi muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilish uchun kurash xalqaro ahamiyatga molik bo'lib qoldi. Bu sohada keyingi yillarda respublikada shifokorlar, ayniqsa gigiyenist olimlar va maxsus ilmiy-tadqiqot institutlari jamoalari ko'pgina arzigulik ishlar qilishdi. Hozirgi zamon tibbiyoti oldida turgan eng muhim masalalardan yana biri vrach bilan bemor o'rtasidagi munosabatlarning (qarang: tibbiyot deontologiyasi) samaradorligiga erishishdir. Organ va to'qimalarni ko'chirib o'tkazishdagi donorlik, to'qimalar mos kelmasligini bartaraf qilish va ushbu muammoga bog'liq bir qancha masalalar, masalan, o'zak hujayralardan davolash maqsadida foydalanish tibbiyotda muhim o'rin tutmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining shakllanishi insoniyat tafakkurining muhim yutuqlaridan biri bo'lib, ular zamonaviy tibbiyot asoslarini yaratgan. Gippokrat, Galen, Ibn Sino kabi allomalar ilm-fan va amaliyot uyg'unligiga asoslangan yondashuvlari bilan bugungi tibbiyot rivojiga zamin hozirlagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki sivilizatsiya tibbiy bilimlar boyligiga muhim hissa qo'shgan.

Taklif tariqasida, bugungi kunda tibbiyot tarixining Sharq va G'arb tajribalari integratsiyasiga asoslangan holda o'rganilishi zarur. Tibbiyot oliygohlarida tarixiy tibbiy manbalarni o'rgatish tizimini kuchaytirish, qadimgi ilmiy merosni zamonaviy tibbiy ta'limga integratsiya qilish dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, xalq tabobati va an'anaviy yondashuvlarni ilmiy asosda qayta tahlil qilish va amaliyotga joriy etish ham muhim yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). Дистанционное обучение как средство обмена учебной информацией на расстоянии. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(2), 278–282. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6282694>
2. Bakaev N.B. (2022). Methodological basis of mastering foreign language. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(3), 146–150. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6378840>
3. Бакаев Нажмиддин Бакаевич, Рахмонов Сухроб Бахриддинович. (2022). Фундаментальные аспекты обучения иностранным языкам в современных реалиях. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6585277>
4. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). Проблемы обучения латинской анатомической терминологии в полилингвальной группе и пути их решения. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(9), 49–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7073544>
5. Бакаев, Н. (2025). Лотин тилини ўқитиш жараёнида талабаларни интеллектуал-маънавий ривожлантиришнинг педагогик назарий асослари. *Central Asian Journal of Academic Research*, 3(3), 17–21. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15000204>
6. Бакаев, Н., Шарипов, А., & Ташов, Т. (2025). Латынь как основа языка медицины. *Наука и инновация*, 3(2), 133–135. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/44196>
7. Бакаев, Н., Тошов, Т., & Шарипов, А. (2025). Ёш авлод тарбияси – юрт келажаги гаровидир. *Наука и инновация*, 3(3), 48–50. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/44530>
8. Bakayev, N. (2025). Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining tibbiy tushunchalarini shakllantirish metodikasi. *Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi*, 3(1), 36–40. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14700969>
9. Бакаев, Н. (2025). Латынь как основа языка медицины. *Молодые ученые*, 3(3), 18–21. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/43826>
10. Бакаев Наджмиддин Бакаевич. (2025). Места латинского языка в мировой культуре и образовании. *Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi*, 40(1), 73–77. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/3367>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.